



Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

2024  
2025  
2026

IYUN  
IYUL  
AVGUST

Faoliyatning  
asosiy  
ko'rsatkichlari

## **Mundarija**

<b>2025-yilning iyun oyida ikkilamchi bozorda avtomobillar narxining o'zgarishi.....</b>	<b>2</b>
<b>2019 - 2024 yillarda sarxil meva-sabzavotlar eksportining geografik diversifikasiya indeksi .....</b>	<b>4</b>
<b>BMTning Raqamli va barqaror savdo tartibini soddalashtirish bo'yicha global tadqiqoti (UNTF Survey) natijalari .....</b>	<b>6</b>



**Mahalliy ommabop avtomobillar narxi.** Joriy yilning iyun oyiga kelib, mahalliy ommabop avtomobilarning o'rtacha narxida may oyidagiga nisbatan biroz ko'tarilish kuzatildi. Xususan:

- «Onix»: o'rtacha foydalanilgani \$120 ga (\$13 480 dan \$13 600 ga);
- «Lacetti»: kam foydalanilgani \$200 ga (\$14 600 dan \$14 800 ga), ko'p foydalanilgani \$100 ga (\$12 900 dan \$13 000 ga);
- »Cobalt»: kam foydalanilgani \$150 ga (\$12 550 dan \$12 700 ga), o'rtacha foydalanilgani \$125 ga (\$12 000 dan \$12 125 ga), ko'p foydalanilgani \$100 ga (\$11 500 dan \$11 600 ga);
- «Nexia»: o'rtacha foydalanilgani \$300 ga (\$10 900 dan \$11 200 ga); ko'p foydalanilgani \$115 ga (\$10 000 dan \$10 115 ga);
- «Spark»: ko'p foydalanilgani \$200 ga (\$8 800 dan \$9 000 ga), o'rtacha foydalanilgani \$194 ga (\$10 000 dan \$10 194 ga);
- «Damas»: kam foydalanilgani \$50 ga (\$8 000 dan \$8 050 ga) qimmatlashgan.

**Mahalliy lyuks avtomobillar narxi.** Mahalliy lyuks avtomobillar orasida o'rtacha va kam foydalanilgan «Equinox» hamda o'rtacha foydalanilgan «Malibu» narxlari arzonlashgan bo'lisa, kam foydalanilgan «Equinox» va barcha turdagи «Tracker»larning narxi qimmatlashdi.

Xususan:

- «Equinox»ning ko'p foydalanilgani \$200 ga (\$26 200 dan \$26 000 ga), o'rtacha foydalanilgani \$50 ga (\$30 500 dan \$30 450 ga);
- «Malibu»ning o'rtacha foydalanilgani \$500 ga (\$28 500 dan \$28 000 ga) arzonlashgan.
- »Equinox»ning kam foydalanilgani \$1300 ga (\$33 500 dan \$34 800 ga);
- «Tracker»ning o'rtacha foydalanilgani \$300 ga (\$17 000 dan \$17 300 ga), ko'p foydalanilgani \$200 ga (\$16 000 dan \$16 200 ga), kam foydalanilgani \$75 ga (\$18 425 dan \$18 500 ga) qimmatlashgan.

**Elektromobillar narxi.** Mazkur davrda BYD «E2» dan boshqa elektromobillar narxi pasaydi. Xususan:

- BYD «Han»: o'rtacha foydalanilgani \$1600 ga (\$34 100 dan \$32 500 ga);
- BYD «Song Plus EV Champion»: o'rtacha foydalanilgani \$363 ga (\$26 163 dan \$25 800 ga), yangisi \$300 ga (\$28 800 dan \$28 500 ga);
- BYD «Song Plus EV Champion»: yangisi \$675 ga (\$28 000 dan \$27 325 ga), o'rtacha foydalanilgani \$500 ga (\$26 000 dan \$25 500 ga);
- BYD «Yuan Up»: o'rtacha foydalanilgani \$150 ga (\$20 150 dan \$20 000 ga) arzonlashgan. BYD «E2»ning o'rtacha foydalanilgani \$400 ga (\$15 600 dan \$16 000 ga), yangisi \$50 ga (\$16 950 dan \$17 000 ga) qimmatlashgan.

**Xorijiy avtomobillar narxi.** Joriy yilning iyun oyida xorijiy avtomobillardan Kia «K5» va Chevrolet «Monza» qimmatlashgan bo'lisa, Kia «Seltos»ning o'rtacha foydalanilgani arzonlashdi.


Xususan:

- Kia «K5»: ko'p foydalanilgani \$777 ga (\$29 223 dan \$30 000 ga);
- Chevrolet «Monza»: o'rtacha foydalanilgani \$73 ga (\$16 600 dan \$16 673 ga) qimmatlashdi.
- Kia «Seltos»ning o'rtacha foydalanilgani esa \$677 ga (\$24 383 dan \$23 705 ga) arzonlashdi.


Avtomobilarni guruhlarga ajratish bo'yicha bat afsil ma'lumot olish uchun avvalgi tahlillarga qarang.

Narxlarni tahlil qilishda ma'lumotlar [olx.uz](http://olx.uz) platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Bunda may oyi uchun 15,7 mingta, mart oyi uchun 14,8 mingta ma'lumotdan foydalanildi.

## Mahalliy ommabop avtomobillar



## Mahalliy lyuks avtomobillar





Olingen natjalarga ko'ra, tahlil etilayotgan butun davr mobaynida eksportning o'rtacha darajadagi geografik diversifikasiya kuzatilgan.

Eksportning geografik diversifikasiya indeksi Xerfindal-Xirshman konsentratsiya indeksiga (HHI) teskari bo'lib,  $(1-HHI)$  formula asosida hisoblangan. Diversifikasiya darajasi quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

- yuqori (0,850 -1,000);
- o'rtacha (0,750-0,850);
- past (0-0,750).

2024-yilda O'zbekistondan sarkili sabzavot va mevalarni import qiluvchi mamlakatlar soni 73 taga yetdi (2019-yilda 68 ta edi).

Eksport yo'nalishlarining umumiyligi soni har yili 60 dan ortiq mamlakatni tashkil etishiga qaramay, 2019 - 2024 yillar oraliq'ida O'zbekistondan sarkil meva va sabzavotlarni eng ko'p import qiluvchi 5 ta mamlakat ulushi juda yuqori, aniqrog'i 78,4 foizdan (2019-yilda) 83,8 foizgacha (2022-yil) bo'lgan.


2024-yildagi eng yaxshi 5 ta yo'nalishi:

- 1 Rossiya – 38,7 foiz;
- 2 Pokiston – 13,5 foiz;
- 3 Qozog'iston – 12,6 foiz;
- 4 Xitoy – 8,9 foiz;
- 5 Afg'oniston – 8,0 foiz.

Geografik hududlar kesimida eksport yo'nalishlari tarkibidagi o'zgarishlar astasekinlik bilan kechmoqda. O'zbekistondan sarkil meva-sabzavot mahsulotlari eksportining umumiyligi hajmida MDH mamlakatlarining ulushi 2019-yildagi 69,4 foizdan 2024-yilda 57,7 foizgacha pasaygan bo'lisa-da, hali ham yuqoriligidagi qolmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga sarkil sabzavot va mevalar eksporti ulushi, aksincha, 2019-yildagi 2,1 foizdan 2024-yilda 2,4 foizgacha oshgan. ■

## Sarxil meva-sabzavot mahsulotlari eksportining geografik diversifikasiya indeksi



Manba: UN COMTRADE ma'lumotlariga asoslangan MHTI hisob-kitoblari



Ushbu tadqiqot har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladi, 180 dan ortiq davlatlarni qamrab oladi va mamlakatlar tashqi savdoda qay darajada zamonaviy raqamlashtirish standartlarini qo'llayotganini, shaffoflikni ta'minlayotganini va byurokratiyani qisqartirayotganini baholaydi.

Tadqiqotning asosiy ko'rsatkichi bu Savdo tartibini soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilish koeffitsiyenti (Trade Facilitation Score) bo'lib, u 62 ta yo'naliш bo'yicha mamlakatning umumiy yutuqlarini aks ettiradi. Ushbu yo'naliшlarga Jahon savdo tashkilotining Savdoni soddalashtirish bo'yicha bitimi (TFA) qoidalari, shuningdek, qog'ozsiz savdo, transchegaraviy elektron savdo va "yashil savdo"ni soddalashtirishga doir yangi mintaqaviy va global tashabbuslar kiradi. Tadqiqot doirasida, shuningdek, kichik biznes va ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, savdoda keng va inklyuziv ishtirokni ta'minlovchi chora-tadbirlar ham o'rganilgan.

O'zbekiston shaffoflikni to'liq ta'minlagan, raqamlashtirishni oshirgan va rasmiyatçiliklarni keskin kamaytirgan holda ushbu yo'naliшda mintaqadagi eng yaxshi natijalarni namoyish qilmoqda va nafaqat mintqa davatlari, balki bir qator rivojlangan mamlakatlarni ham ortda qoldirmoqda.

2025-yilda O'zbekiston salmoqli natjalarga erishdi – yakuniy koeffitsiyent bo'yicha 92,47 foiz. Bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha ko'rsatkich (77 foiz), dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich (70,4 foiz) va rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichidan (86 foiz) yuqori.

Asosiy yo'naliшlar va ko'rsatkichlar:

Shaffoflik – 100 foiz

Bojxonadagi rasmiyatçilik – 95,83 foiz

Qog'ozsiz savdo – 96,3 foiz

Tashqi qog'ozsiz savdo – 88,89 foiz

Institutsional mexanizmlar va hamkorlik – 66,67 foiz

2023-yil bilan qiyoslaganda umumiy koeffitsiyent (84,95 foiz) o'sishi 7,5 foiz punktdan oshdi.

Ayniqsa, shaffoflik va qog'ozsiz savdo yo'naliшlarida sezilarli rivojlanish kuzatilmogda. Bu esa hujjatlar va qog'ozbozlikni keskin kamaytirish, eksport-import operatsiyalarini tez rasmiylashtirish va tashqi savdo ishtirokchilari uchun ochiq tartibga solish muhitini yaratish imkonini berdi. "Yagona darcha" tizimi jadal rivojlanmoqda, ruxsatnomalar va sertifikatlarni olish uchun elektron xizmatlar integratsiya qilinayapti, davlat organlari o'rtasida elektron hujjat aylanishi kengaymoqda. Bularning barchasi O'zbekistonning shunday yuqori natija qayd etishiga olib kelmoqda.

UNTF Survey 2025 doirasida O'zbekiston erishgan natijalar bu nafaqat islohotlar samaradorligining tan olinishi, balki xalqaro hamkorlar va investorlar uchun ham muhim ishoradir: mamlakat tobora ochiqlashmoqda, raqobatbardosh va global yetkazib berish zanjirlariga chuqr integratsiyalashmoqda.

Bu natijalar O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi mavqeini mustahkamlab, uzoz muddatli iqtisodiy o'sish uchun zamonaviy va shaffof infratuzilma shakllanishiga va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan mahsulot va xizmatlar eksportini oshirish bo'yicha maqsadlarga erishishga ham xizmat qiladi.

## SAVDO TARTIB-QOIDALARINI SODDALASHTIRISH VA QOG'ozsiz SAVDONI JORIY ETISH (2025)

